

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.FIL.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

BEKBERGENOVA ABADAN UTEPOVNA

**QORAQALPOQ XALQ DOSTONI «ER ZIYVAR»: GENEZISI,
TIPOLOGIYASI, POETIKASI**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Bekbergenova Abadan Utepvna

Qoraqalpoq xalq dostoni «Er Ziyvar»:

genezisi, tipologiyasi, poetikasi..... 3

Бекбергенова Абадан Утеповна

Каракалпакский народный эпос «Ер Зийуар»:

генезис, типология, поэтика..... 25

Bekbergenova Abadan Utepvna

Karakalpak folk epic «Er Ziywar»: genesis, typology, poetics..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.FIL.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

BEKBERGENOVA ABADAN UTEPOVNA

**QORAQALPOQ XALQ DOSTONI «ER ZIYVAR»: GENEZISI,
TIPOLOGIYASI, POETIKASI**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil3218 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-saytida (www.aknuk.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Bahadirova Sargul
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Jariffbetov Kurbanbay Kudaynazarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Allamergenova Nodira Gulmurzaevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02.25.08.2021.Fil.137.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "13" 08 soat 9⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47; faks: (99861) 222-85-47; e-mail: kk_gumanitar@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin. (13 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "01" 08 kuni tarqatildi.
(2025-yil "01" 08 daqi 6 -raqamli reyestr bayonnomasi).



A.I.Alniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

A.M.Bekimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), katta ilmiy xodim

K.S.Palimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon folklorshunosligida milliy badiiy tafakkurning rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutadigan xalq dostonlarining tarixiy-genetik asoslarini aniqlashtirish bilan bir qatorda, tipologik, poetik, evolyutsion xususiyatlarini tadqiq qilishning ko'lamida ancha kengayib bormoqda. Natijada, xalq dostonlarining genezisi, motiv, syujet tipologiyasi, obrazlar tizimi, badiiy evolyutsiyasini tadqiq qilish asosida milliy eposning paydo bo'lishi va shakllanishi qadimgi davrlarga, ertadagi arxaik mifologik-ertak syujetlarga borib taqalishi haqidagi ilmiy qarashlar chuqurlashtirildi. Bunday yangi ilmiy-nazariy konsepsiyalar folklorshunoslikda xalq og'zaki ijodida epik meroslarni, shu jumladan, qahramonlik dostonlari genezisi va tipologiyasini atroflicha o'rganish, uning badiiy-estetik vazifalarini aniqlash, bu orqali zamonaviy jahon folklori yutuqlarining mazmun-mohiyatini ochib berish zaruratini keltirib chiqardi.

Dunyo folklorshunosligida qahramonlik eposi nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan yangi yo'nalishdagi usullarning paydo bo'lishi, ta'kidlab aytganda, epik janrning genezisi, tipologiyasi, poetika masalalariga doir ilmiy-nazariy qarashlar takomillashtirilib, doston genetikasida arxaik syujet va ertak motivlarning o'rin olishi haqidagi ilmiy qarashlar yangi tadqiqot o'lchamlari asosida boyitilib borildi. Bu kabi yangi nazariy konsepsiyalar har bir xalqning g'ururi bo'lgan qahramonlik eposini fundamental tarzda tadqiq qilish, jirovlarning ijro mahorati va epik an'analarning tadrijiy rivojlanish tamoyillarini oydinlashtirishga zamin yaratadi. Binobarin, Orol bo'yi hududida epik an'ana asosida yaratilib, asrlar davomida kuylanib kelayotgan qahramonlik dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari jahon xalqlarining badiiy tafakkur kontekstida qiyosiy o'rganilsa, mazkur dostonlarning paydo bo'lishi va shakllanishi qadim davrlarga borib taqalishini aniqlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning hozirgi yangi bosqichida, xalqimizning ma'naviy madaniyatining manbasi bo'lgan xalq og'zaki ijodi janrlariga har qachongidan ham katta e'tibor qaratilib, ularni chuqur o'rganish asosiy vazifa qilib belgilandi. «Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og'zaki ijodi – folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'analarni saqlash va rivojlantirishda bebaho manba»¹ hisoblanishini e'tiborga oladigan bo'lsak, «Er Ziyvar» dostoni ham qoraqalpoq xalqining milliy tafakkuri asoslarini ko'rsatib turuvchi dostonlar qatorida folklorshunoslik ilmida tadqiqini kutib turgan dolzarb masalalardan biri ekanligi oydinlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli «O'zbek tilining davlat tili

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида» ги қарори // Халқ сўзи. – Т., 2018 йил 3 ноябрь, № 228 (7186).

sifatidagi mavqeyi va nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-sonli «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320 sonli «Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarini rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi talablariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turkiy va jahon xalqlari eposlari genezisi, janriy xususiyatlari, ularning syujet qatlamlari va obrazlar tizimi, tipologiyasi va poetikasiga bog'liq rus olimlari G.N.Potantin, A.K.Borovkov, V.Ya.Propp, E.M.Meletinskiy, A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, B.N.Putilov² va boshqalarning e'tiborli tadqiqotlari ushbu yo'nalishdagi ilmiy ishlarning mustahkam nazariy asoslarini yaratdi. Ushbu yo'nalishga oid bir qator nazariy masalalar o'zbek³ folklorshunoslari tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan. Shuningdek, bu borada qozoq, qirg'iz, turkman⁴, mo'g'ul, ozarbayjon, xakas,

² Потанин Г.Н. Монгольское сказание о Гэсэр-хане. К вопросу о происхождении русских былин // Вестник Европы. – Москва, 1890. – № 9. – С. 121-158; Боровков А.К. Вопросы изучения тюркоязычного эпоса народов Средней Азии Казахстана. – Москва: АН СССР, 1958. – 290 с.; Пропп В.Я. Русский героический эпос. – Ленинград: Гослитиздат, 1958. – 607 с.; Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса: Ранние формы и архаические памятники. – Москва: Восточная литература, 1963. – 462 с.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989. – 404 с.; Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Ленинград: Наука, 1974. – 727 с.; Путилов Б.Н. Мотив как сюжетобразующий элемент // Типологическое исследование по фольклору. – Москва: Наука, 1974. – 131 с.

³ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – 518 с.; Зарифов Х.Т. Основные мотивы эпоса «Алпамыш» // Об эпосе «Алпамыш». Сб. ст. – Тошкент: АН УзССР, 1959. – С. 6-25; Мирзаев Т. «Алпомиш» достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – 152 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққияти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 9-61; Ёрматов И.Т. Ўзбек халқ қахрамонлик эпоси бадиияти: Филол. фан. д-ри. ... дис. – Тошкент, 1994. – 55 б.; Эшонкул Ж. Фольклор: образ ва талкин. – Қарши: Насаф, 1999. – 171 б.; О'sha mualif. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006. – 122 б.; Мирзаева С. Ўзбек халқ романик достонлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2004. – 246 б.; Рўзимбоев С. Хоразм достончилиги эпик аънаналари. – Урганч: Университет, 2008. – 62 б.; Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – 194 б.; Турдимов Ш. «Гўрўғли» достонларининг генезиси ва тадрижий боскичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 240 б.; О'sha mualif. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 96 б.

⁴ Марғулан А. Шоқан және Манас. – Алматы: Жазушы, 1971. – 164 б.; Бердибаев Р. Қазақ эпосы. – Алма-Ата: Ғылым, 1982. – 228 б.; Қоңыратбаев А. Қазақ эпосы және түркология – Алматы: Ғылым, 1987. – 363 б.; Қыдырбаева Р.З. Генезис эпоса «Манас». – Фрунзе: Илим, 1982. – 136 б.; Садыков К. Дж. Кыргызский

boshqurt va boshqa xalqlari dostonlari bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlardagi natijalar e'tiborga molik xulosalardan iborat.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo xalqlari ijodida, jumladan, qoraqalpoq dostonchiligining milliy o'ziga xosligi va tipologiyasi, epik tasavvur va ijrochilar mahorati, dostonlarning variant va versiyalari masalalari taniqli nemis olimi K.Rayxl tomonidan ma'lum darajada o'rganilib, yangi xulosalar qilishga keng imkoniyat yaratildi⁵. Qoraqalpoq folklorshunoslari: N.Davqarayev, Q.Ayimbetov, I.Sag'itov, Q.Maqsatov, S.Baxadirova, K.Allambergenov, J.Xoshniyazov, K.Palimbetov, J.Nizamatdinov, F.Maqsatova, J.Mambetovlarning⁶ ilmiy tadqiqotlarida qoraqalpoq xalqining ayrim qahramonlik va oshiqlik dostonlarining genetik asoslari, variantlari va boshqa xalqlarning versiyalari bilan tipologiyasi, kompozitsion qurilishi, badiiylik xususiyatlariga bog'liq qimmatli fikr-mulohazalar bildirildi.

Qoraqalpoq xalq dostonlaridan biri «Er Ziyvar» qahramonlik xarakteriga ega bo'lib, uning kompozitsiyasi va epik voqealari mifologik-arxaik syujetlar asosiga qurilganligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Dostonni yozib olish va uni nashr qilish ishlari XX asrning 40-yillaridan boshlandi. Q.Ayimbetov, I.Sag'itov, A.A.Valitova, Q.Maqsatovlarning maqolalari va ilmiy tadqiqotlarida⁷ doston haqida qisqacha fikrlar bildirilsa ham, izchil ravishda o'rganilmagan. Shuning uchun ham «Er Ziyvar» dostonining genezisi, janriy xususiyatlari, syujeti, motivlar tipologiyasi va obrazlar tizimi masalalarini milliy versiyasi asosida maxsus tadqiqot ishi olib borish xalqimiz badiiy tafakkurining shakllanish tarixi va

героический и русский былинный эпос в свете типологической общности: (На примере кыргызского эпоса «Эр Тештюк»): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-ата, 1991. – 25 с.; Гарриев С. Туркмен эпосы, дессанлары ве гундогар халкларынын эпик дореджиллиги. – Ашкбат, 1982. – 200 б.; Мамедиязов Б. О поэтике эпоса «Горуғлы». – Ашгабад: Ылым, 1984. – 115 с.

⁵ Райхл К. Тюрский эпос: традиции, формы, поэтическая структура (перевод с немецкого В.Грейтер). – Москва: Восточная литература, 2008. – 384 с.

⁶ Дәўқараев Н. Шығармаларының толық жыйнағы. 2-т. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1977. – 354 б.; Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1968. – 297 б.; О'sha mualif. Қарақалпақ фольклоры. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1977. – 224 б.; Сағитов И. Қарақалпақ халқының қахарманлық эпосы. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1986. – 354 б.; Мақсетов Қ. Қарақалпақ қахарманлық дәстаны «Қырық кыз». – Нөкіс: Қарақалпақ мәмлекет баспасы, 1962. – 125 б.; О'sha mualif. Қарақалпақ қахарманлық дәстанларының поэтикасы. – Ташкент: Фан, 1965. – 334 б.; Бахадырова С. «Китаби дедем Қорқыт». «Қоблан». «Едиге» хәм хәзирги әдебият хәққында ойлар. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1992. – 171 б.; О'sha mualif. Қарақалпақ қандай халық? – Ташкент: Наврўз, 2017. – 256 б.; Алламбергенов К. Қарақалпақ халық дәстаны «Едиге». – Нөкіс: Билим, 1995. – 228 б.; О'sha mualif. Миф, ертеқ, тарийх хәм дәстаны. – Нөкіс: НМПИ, 2014. – 103 б.; Хошниязов Ж. Миллий руўхый дүньямыздың сағалары. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2007. – 100 б.; О'sha mualif. Қарақалпақ қахарманлық дәстанларының пайда болыў дәреқлери (Тарийхый-фольклорлық изертлеў тәжірийбеси). – Ташкент: Anogbooks, 2024. – 440 б.; Палымбетов К. «Қорқыт ата китабы» хәм қарақалпақ дәстанлары. – Нөкіс: Билим, 2010. – 128 б.; О'sha mualif. Қарақалпақ халық дәстаны «Қоблан» (генезиси хәм типологиясы). – Нөкіс: Билим, 2020. – 164 б.; Низаматдинов Ж. Каракалпақский народный дастан «Er Шора» (историко-типологические сравнение): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нукус, 2000. – 18 б.; Мақсетова Ф. «Саётхон-Хамро» достони қарақалпоқ версияси типологияси: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. автореф. – Тошкент, 2021. – 54 б.; Мамбетов Ж. Қарақалпақ халық дәстаны «Жәхәнша» (генезиси, типологиясы, жанрлық өзгешелиги хәм образлар системасы). Филол. ... илим. филос. д-ры (PhD). ... дис. автореф. – Нөкіс, 2022. – 54 б.

⁷ Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1968. – Б. 94; Сағитов И. «Er Зийўар» дәстаны туўралы // Әмиўдәрья. – Нөкіс, 1958. – № 2. – Б. 118-121; Валитова А.А., Бертельс Е.Э. Қарақалпақ әдебияты хәққында // Әмиўдәрья. – Нөкіс, 1958. – № 2. – Б. 74-77; Мақсетов Қ. «Er Зийўар» // Әмиўдәрья. – Нөкіс, 1959. – № 5. – Б. 117-128.

rivojlanish bosqichlariga oid yangi ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zR FA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2017-2020-yillarda «Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish», 2021-2023-yillar uchun «Qoraqalpoq og'zaki prozasi (janrlar tuzilishi, genezisi, obrazlar, syujet va motivlari, poetikasi)» mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qoraqalpoq xalq dostoni «Er Ziyvar»ning genezisi, janriy o'ziga xosliklari, syujet va motivlar tipologiyasi, obrazlar tizimini tadqiq qilishlar asosida dostonning qoraqalpoq epik an'anasida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

dostonning to'planish, tadqiq qilish jarayoni bilan birga syujet va motivlar manbasini o'rganish asosida genezisi, janriy xususiyatlarini oydinlashtirish;

dostonning qoraqalpoq milliy variantidagi syujet qatlami, motivlar tipologiyasini o'rganish orqali boshqa qardosh xalqlar dostonchiligida tutgan o'rnini belgilash;

dostondagi epik syujetning yuzaga kelishi va shakllanishida mifik-ertak syujetlarning o'rnini va bajaradigan badiiy vazifasini aniqlash;

obrazlar tizimini yaratishda mifik, fantastik, maishiy-realistik tasvirlash usullaridan foydalanish mahoratini ochib berish;

dostonning badiiy-kompozitsion qurilishini, til xususiyatlarini, poetik tasvirlash usullarini aniq misollar asosida tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida «Er Ziyvar» dostonining O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi fundamental kutubxonasining qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan VR-145, № 1627, R-140, № 86076 inventar raqamli qo'lyozma nusxalari, shuningdek, «Qoraqalpoq folklori» 20 jildligining IX jildi (Nókis: Qaraqalpaqstan, 1981) va 100 jildligining 27-jildi (Nókis: Ilim, 2011) tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini «Er Ziyvar» dostonining janriy xususiyatlari, epik syujetlari genezisi, motiv va obrazlar tipologiyasi, dostonning badiiyligini tasvirlovchi poetik vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, tariyxiy-tipologik, tarixiy-genetik, qiyosiy-tipologik, struktur va badiiy-estetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

«Er Ziyvar» dostonining milliy variantini qiyosiy tahlil qilish natijasida turkiy xalqlarning mifik-fantastik, ertak syujetli dostonlaridagi arxaik syujetlar va mif-poetik tushunchalarning badiiy tadriji bilan bog'liqligi dalillangan;

dostonning turkiy xalqlar eposlari, ertaklari, rivoyat va afsonalari bilan o'zaro aloqasi, syujetlardagi mushtaraklik va o'ziga xos jihatlar tahlil etilib, ularning tarixiy-genetik tomondan yaxlit manba asosida yuzaga kelganligi aniqlangan;

An'anaviy epik syujetlarning, obrazlar tizimining rivojlanishiga va badiiy tasvir vositalariga boy milliy dostonning paydo bo'lishida Qurbonboy jirovning badihago'ylik iqtidori va yakka ijro mahorati asos bo'lganligi oydinlashtirilgan;

«Er Ziyvar»ning epik qahramonlikni aks ettirgan keyingi davrda yaratilgani bilan o'zida arxaik motiv va obrazlarni jamlagan doston ekanligini aniqlashda qahramonlarning ilohiy kuchga ega bo'lishi, o'ziga qarshi kuchlar bilan kurashishda ertak motivlarining aks etishi, mifologik qarashlar va e'tiqodlar turmush realligi asosida tasvirlanishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Jahon folklorshunosligidagi mifik-ertak, fantastik-realistik tasvirlarga boy bo'lgan eposlarga xos ilmiy-nazariy konsepsiyalar umumlashtirilib, qoraqalpoq folklorshunosligida tutgan o'rni va ahamiyati asoslab berilgan;

dostonning yaratilishi va shakllanishiga asos bo'lgan manbalarni aniqlash jarayonida arxaik va mifik-ertak, fantastik-realistik syujetlarning qoraqalpoq eposi genezisida tutgan o'rni ochib berilgan;

«Er Ziyvar» dostoni milliy variantining yozib olinishi, tadqiq qilinishi va epik syujetning badiiylik kasb etishida tasviriy vositalarning tutgan o'rni ko'rsatib berilgan;

dostonda qahramonga yordamchi obrazlarning ilohiy kuchga ega bo'lishi, duo, sehr, jodu (magiya) yordamida yaxshilik va adolatning qaror topishidagi harakatlari, ayniqsa, botirning sarguzashtini bayon qilishda dushmanlarga qarshi kurashlari matn tahlili asosida yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullar, unda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, nazariy xulosalar va takliflarning amaliyotda keng qo'llanganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qoraqalpoq xalq dostoni «Er Ziyvar»ning genezisi, janriy o'ziga xosliklarini, syujeti, motivlar tipologiyasi va obrazlar tizimi bo'yicha olingan ilmiy yechimlar hamda xulosalar, qahramonlik eposlariga oid ilmiy nazariy qarashlar turkiy xalqlari folklori og'zaki epik merosida botirlar obrazini qiyoslab o'rganishda, shuningdek, badiiy-kompozitsion xususiyatlarini ilmiy tahlil qilishda ma'lum darajada nazariy asos yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallari va xulosalaridan o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida folklorshunoslik fani bo'yicha ma'ruza va seminarlarni tashkil qilishda, shuningdek, qoraqalpoq folklorshunosligi fani dasturlarida xalq eposlarining ilmiy-nazariy masalalarini o'qitishda, darsliklar va qo'llanmalar yaratishda, magistrlik ishlarini bajarishda, umumta'lim maktablarida qoraqalpoq folklori fanining sifatini takomillashtirishda yordamchi material sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Er Ziyvar» dostonining genezisi, tipologiyasi, janriy xususiyati va obrazlar tizimini qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq qilish asosida:

«Er Ziyvar» dostonining milliy variantini qiyosiy tahlil qilish natijasida turkiy xalqlarning mifik-fantastik, ertak syujetli dostonlaridagi arxaik syujetlar va mif-poetik tushunchalarning badiiy tadriji bilan bog‘liq ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan FA-F-1-005 raqamli «Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish» mavzusidagi fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan. (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2024-yil 26-noyabrdagi № 545/1-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, qoraqalpoq folklorshunosligida qahramonlik dostonlarning, jumladan, «Er Ziyvar» dostonining genezisi, janriy xususiyatlari, tipologik jihatlarini o‘rganilish tarixiga oid ilmiy-nazariy qarashlar yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan.

dostonning turkiy xalqlar eposlari, ertaklari, rivoyat va afsonalari bilan o‘zaro aloqasi, syujetlardagi mushtaraklik va o‘ziga xos jihatlar tahlil etilib, ularning tarixiy-genetik tomondan yaxlit manba asosida yuzaga kelganligi haqidagi ilmiy nazariy fikr va yechimlardan O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan «Qoraqalpoq og‘zaki prozasini (janrlar qurilishi, genezisi, obrazlar, syujet va motivlari, poetikasi)» mavzusidagi fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan. (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2024-yil 26-noyabrdagi № 546/1-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, «Er Ziyvar» dostonining turkiy xalqlar epik tizimidagi o‘rnini belgilash imkonini yaratgan va shunga asos loyiha mazmuni yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan takomillashtirilgan;

An’anaviy epik syujetlarning, obrazlar tizimining rivojlanishiga va badiiy tasvir vositalariga boy milliy dostonning paydo bo‘lishida Qurbonboy jirovning badihago‘ylik iqtidori va yakka ijro mahoratini asoslab berilishi bo‘yicha ilmiy xulosalardan yosh ijodkorlarga bag‘ishlangan amaliy va mahorat darslarini o‘tkazishda foydalanilgan. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 26-noyabrdagi № 107-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yosh ijodkorlar Qurbonboy jirovning dostonidagi poetik usullari bilan tanishish, o‘rganish orqali o‘z asarlarida qahramonlik, vatanparvarlik ruhini shakllantirib, ijodiy iste’dodining yanada rivojlanishini ta’minlagan;

«Er Ziyvar»ning epik qahramonlikni aks ettirgan keyingi davrda yaratilgani bilan o‘zida arxaik motiv va obrazlarni jamlagan doston ekanligini aniqlashda, qahramonlarning ilohiy kuchga ega bo‘lishi, o‘ziga qarshi kuchlar bilan kurashishda ertak motivlarining aks etishi, mifologik qarashlar va e’tiqodlar turmush realligi asosida tasvirlanishiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasining «Assalawma aleykum Qaraqalpaqstan», «Ruwhiyliq bostani», «Miyras» nomli ko‘rsatuv va radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2024-yil 22-noyabrdagi № 05-22/ 508-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu teleko‘rsatuv va radioeshittirishlarning ilmiy ommabopligi ta’minlangan va milliy qadriyatlarimizning ruhiy-madaniy rivojlanishida tutgan o‘rnini yoshlar orasida keng ommalashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va respublika, shundan 3 ta respublika, 4 ta xalqaro konferensiya va seminarlarda ma’ruzalar qilinib, aprobatsiyadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr qilingan bo’lib, ulardan O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 6 ta maqola respublika, 2 ta maqola chet el jurnallarida e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, asosiy uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 161 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o’rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Er Ziyvar» dostonining tadqiq qilinishi, genezisi va janriy xususiyatlari**» deb nomlanib, uning «**Dostonning yozib olinishi, tadqiq qilinishi va janriy xususiyati**» masalalariga bag’ishlangan birinchi faslida mazkur dostonning Qurbonboy jirov Tajiboyevdan yozib olinishi, tadqiq qilinishi va janriy xususiyati haqida so’z yuritiladi. «Er Ziyvar» dostonining bizgacha yetib kelishida jirovlar maktabining ahamiyati juda katta bo’lib, taxminlarga ko’ra bu dostonni Jiyan jirov ijro qilganligi, Qurbonboy jirov esa bu dostonni ustози Buxorodagi Erboy jirovdan o’rganganligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Dostonni yozib olish ishi 1941-yilda S.Beknazarov tomonidan boshlanib, 1953-1958-yillarda G.Esemuratov tomonidan yakunlangan. Qurbonboy jirovdan yozib olingan ushbu doston variantining hozirgi vaqtda O’zR FA Qoraqalpog’iston bo’limi fundamental kutubxonasining qo’lyozmalar fondida (VR-145, № 1627, arab xati bilan yozilgan, muqovalangan, 442 bet qo’lyozma, R-140 inventar, № 86076, 71-sonli hisob bilan, kirill alifbosida mashina yozuvi) saqlanib, hajmi jami o’n bir ming misra she’riy matndan iborat ekanligi aniqlandi. Ushbu qo’lyozmalar asosida doston birinchi marta 1958-yil G.Esemuratovning tashabbusi bilan Qoraqalpoq davlat nashriyotida chop etildi. 1981-yili doston Q.Maqsatov, G.Esemuratov va A.Qojiqbayevlar hamkorligida tayyorlanib «Qoraqalpoq folklori» ko’p jildligining IX jildidan hamda 2007-2015-yillarda nashr qilingan «Qoraqalpoq folklori» 100 jildligining 27-jildidan o’rin oldi. Mazkur dostonning qoraqalpoq xalq og’zaki dostonchiligida tutgan o’rni, ahamiyati, g’oyaviy xususiyati, janri va mazmuni haqida taniqli folklorshunos olimlar Q.Ayimbetov, I.Sag’itov, A.Valitova, Q.Maqsatovlarning maqolalarida qisqa fikrlar bildirilgan bo’lsa ham, boshqa xalqlarda versiyasi va o’xshash analogi uchramaydigan, yagona variantli «Er Ziyvar» dostonining Qurbonboy jirovdan yozib olinganiga sakson yildan ortiq vaqt o’tishi va nashr qilinganiga qariyb yetmish yil

bo'lishiga qaramasdan hanuz keng ko'lamli tadqiqot ishi olib borilmaganligini ta'kidlash o'rinli. Shuning uchun ham «Er Ziyvar» dostonining genezisi, shakllanish bosqichlari, turkiy xalqlarning qahramonlik eposlari bilan bog'liqligi, an'anaviy motivlarning va obrazlar tizimining o'ziga xosligi, jirovlarning ijodkorlik mahorati, epik merosning badiiy poetikasi masalalari chuqur va har tomonlama ilmiy tadqiq qilishni talab etadi.

«Er Ziyvar» dostonining kompozitsion qurilishida qoraqalpoq xalqining «Qirg'iz», «Alpomish», «Qo'blan» va boshqa qahramonlik dostonlaridagi kabi el, xalq erkinligi uchun kurash, tug'ilgan tuproqni, ona vatanni tashqi dushmanlardan himoya qilish, yovlarga qarshi kurash, bunda botirlarning harakatlari, yakkama-yakka olishishlari, tarixiy maskanlar, xalqning birlashishi, botirlardagi kuch-matonat, aql-farosat, shuningdek, safar motividagi mashaqqatlar va uni yengishda do'stlar yordami kabi syujet unsurlari va motivlarning barchasi «Er Ziyvar» dostonining keng epik syujetida to'la aks etganligi qahramonlik dostonlariga xos belgilar sifatida asoslab berildi va tegishli xulosalar chiqarildi.

Birinchi bobning «**Dostonning genezisi va syujetining shakllanishida arxaik-ertaklik motivlar**» deb atalgan ikkinchi faslida qahramonlik eposlarining genezisini, shakllanish bosqichlarini nazariy jihatdan tadqiq qilish va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, mazkur eposning tarixiyliigi, tadrijiy bosib o'tgan yo'llari va syujet tuzishdagi o'zgachaliklarini aniqlashida katta ahamiyatga ega ekanligi nazarda tutildi. E.M.Meletinskiy o'z kuzatishlariga asoslanib, «Qahramonlik eposining negizini panegirika, diniy afsonalar, avlodlar solnomalari emas, sinfiylikkacha bo'lgan xalq eposi eng dastlabki manba ekanligini va uning faqat syujet elementlarigina emas, balki epik idealining shakllanishi, qahramonlik eposining betakror go'zalligini o'zida mujassamlashtirgan, o'ziga xos epik garmoniyaligini, ibtidoiy tuzumning folklor an'anasi bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi»⁸. Akademik V.M.Jirmunskiy esa turkiy tilli xalqlarda keng tarqalgan «Alpomish» dostonining versiyalarini qiyoslab tadqiq qilish natijasida qahramonlik dostonlarining paydo bo'lishiga botirlik ertak asos bo'lgan⁹, – degan fikr bildirsa, tadqiqotchi A.M.Astaxova: «...Epos o'zining shakllanishida ertakka xos bir qancha jihatlarni ham birlashtiradi shuningdek, eposdagi xayoliy jarayonlarga ba'zan ertakka oid holatlar ham yot emas. Qahramonlik dostonlari materiali asosida ertakka xos syujet va epizodlarning birikib kelishi tabiiy hol»¹⁰, – degan fikrga keladi. Biz folklorshunoslar bildirgan fikrlarga qo'shilgan holda qoraqalpoq xalq qahramonlik dostoni «Er Ziyvar»da ham xayoliy-afsonaviy voqealarning ertaklar bilan nozik bog'lanishining ajoyib namunasi borligini e'tirof etamiz.

«Er Ziyvar» dostonining qadimiy ildizlari ibtidoiy sinfiylik davrigacha bo'lgan muddatda arxaik qatlamni o'z ichiga olgan, dastlab afsonaviy, ertak syujetlari asosida og'zaki aytilib, davrlar osha jirlovchilik san'atining paydo bo'lishi bilan epik shaklga o'tgan epos sifatida shakllangan. Bundan tashqari syujetida xalq turmush tarzi, eldagi feodal-patriarxal boshqaruv tuzumi, xonlik taxt uchun talashlar, bosqinchilik

⁸ Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса. Ранние формы и архаические памятники. – Москва: Восточная литература, 1963. – С. 19.

⁹ Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Ленинград: Наука, 1974. – С. 222.

¹⁰ Астахова А.М. Народные сказки о богатырях русского эпоса. – М.-Л.: АН СССР, 1962. – С. 17.

harakatlari, adolatsizlik va zo'rlik, unga qarshi kurash orqali adolatli va osuda turmushga erishish kabi dadil harakatlar o'z aksini topganligini anglash qiyin emas. Chunki doston qurilishida boshqa qahramonlik dostonlardagi kabi qavmlik davriga oid hokimiyat uchun kurash, syujet rivojlanishi barobarida bosqinchilikning oldi olinishi, xalqni himoya qilish, yovlarga qarshi kurash, tomonlar orasidagi qirg'inbarot janglar, botirlarni ruhlantirish, bu voqealar markazida turgan botir Er Ziyvarning qahramonligi va jasorati orqaligina amalga oshishi bevosita qahramonlik dostonlarga xos epik tasvirlashlarning ifodasiga misol bo'la oladi.

Dostondagi «botirning yakkama-yakka kurashish motivi» qozoq xalqining «Talaspay-Mergen», xakas xalqidagi «Altin-Pirqan»ida osmon qizining (небесная дева) Oltin Chyustyukning yengilib asir tushishi, Shor xalqining «Xon-qizi» («Царь-девица») qahramonlik ertagidagi botirning xon qizi bilan kurashishi voqealarida hamohang kelishi, shuningdek, yuqorida keltirilgan ertaklardagi botirning qizni o'lja qilib olishi «Er Ziyvar» dostonidagi Er Ziyvarning Oqtamoqni yengib Er Janoyga xotinlikka berish voqeasiga uyg'unligi va «Oljaxon» qoraqalpoq botirlik ertagidagi voqeaning ham bog'liqligi borligi ko'rinadi. Shuningdek, «botirning qiz izlash safari» bo'limida Er Ziyvarning qiz izlash safaridagi pari qizga oshiq bo'lish voqeasi «Gulbulbul», «Ajibek va Qubili» botirlik ertaklarida, «botirning yovuz kuchlar bilan to'qnashuv» voqeasi «Genedey botir», «Orzusiga yetgan yigit», «To'rexon va Oqqo'zi», «O'rol botir» kabi qoraqalpoq qahramonlik ertaklarida ham borligi aniqlandi. Botirning kiyikka aylanib qolishi qoraqalpoq xalq ertagi «Malikhasan»dagi Bo'ray podshoning kenja og'li Malikhasanning va «Sanobar»dagi Sanobarning kiyikka sehrlanishi bilan o'xshashligi misollar yordamida qiyoslab tahlil qilindi.

Shu bobning «**Dostondagi ertak sehrlil buyumlar**» deb atalgan uchinchi faslida so'z yuritiladigan «duo o'qish» va «tuproqqa dam solish» orqali sehrlash sehr bilan bog'liq tushuncha evolyutsiyasining har xil bosqichlariga tegishli shakllar hisoblanadi. Sehrlashda qo'llaniladigan tuproqqa so'z orqali ta'sir qilish azaldan inson ongida paydo bo'lgan bo'lib, unda onimistik tushuncha, ya'ni inson atrof-muhitidagi barcha narsalar va jonzotlarga jodu yo'li bilan ta'sir ko'rsata oladi degan tushuncha yotadi. «Jonsiz narsalarga jonli deb qarash insonga o'z maqsadini amalga oshirishda yordam beradi, deb qadimgi odamlar ma'lum bir narsalarni muqaddas hisoblagan va shu asosda esa fetishizm va fetish buyumlarni yaratganlar. Shu tariqa muqaddaslashtirilgan g'ayri tabiiy va sirli sanalgan fetishlar haqida qarashlar tizimi shakllanib, fetish iloh darajasiga ko'tarilgan»¹¹. Sh.Shamusarov: «Arab va o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan sehrlil buyumlarning «xizmatkori» bo'lish motivining «fetish»da muqaddaslashtirilgan narsaning o'zini emas, balki shu buyumga o'tgan ruh, jonni nazarda tutish bilan bog'liq fetishlik ko'z qarashlarning zamirida paydo bo'lganligi sababli kelib chiqqan»¹², – deb yozadi. Shunday ekan, dostonda Zavriya tomonidan Er Ziyvarni sehrlangan kiyikdan yana odam qiyofasiga qaytarilishida foydalanilgan narsa, ya'ni tuproqning ham fetish sehrlil narsaga aylanishining asosi animizmga borib taqaladi.

¹¹ Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртақ. – Ташкент: Mumtoz so'z, 2014. – Б. 244.

¹² Шамусаров Ш. Араб ва ўзбек фольклори тарихий қиёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 274-275.

«Dafn marosimidagidek inson urugʻni bahorda yana koʻkarib chiqishi uchun yerga sochishi koʻmish hisoblanadi. Demak, bunda yer bagʻridan qad koʻtarib chiqqan urugʻ, dafn qilingan murda yoki boshqa jonzot yer farzandi hisoblangan»¹³. Qadim davrlardayoq yerga koʻmilgan odam qayta tiriladi,— degan mifik tushuncha koʻplab folklor janrlarda iz qoldirgan sehrlanish haqidagi qarashning paydo boʻlish manbasiga aylanadi. Bir soʻz bilan aytganda, dostonidagi mazkur ertak motiv semantikasida Er Ziyvarning kiyikka aylanishi va uning bir siqim tuproq va duo orqali qayta odam qiyofasiga kelishi «odamning oʻlib qayta tirilishi» haqidagi qadimiy qarash marosim bilan bogʻliq ekani nazarda tutiladi. Er Ziyvarning aynan tuproq, yaʼni sakral hisoblangan obyektidan olinishining oʻzi bu fikrni tasdiqlaydi. Chunki yerni muqaddas obyekt sifatida qarash deyarli hozirgi davrgacha yetib kelgan. Ertaklarda esa bu obyekt sehrlı buyum va unga bogʻliq motivlar sifatida oʻz ifodasini topgan. Shuningdek, kelib chiqishi ertak tradiciyasiga tegishli boʻlgan doston syujetidagi Zavriyaning fol ochish kitobining tarixiy-etnografik asoslari F.F.Gaysina¹⁴ning ilmiy pikrlariga suyanilib taqil qilindi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Er Ziyvar» dostonining boshqa qahramonlik eposlari bilan bogʻliqligi va anʼnaviy motivlar tizimi»** deb nomlanadi. Bobning «**Dostonning qadimgi yozma yodgorliklar va qahramonlik dostonlari bilan syujet tipologiyasi («Oʻgʻuznoma», «Qoʻrqut ota kitobi», «Alpomish», «Qirgʻiz» dostonlari....)**» nomli birinchi faslida «Er Ziyvar» va turkiy xalqlarning dostonlari syujetidagi tipologik bogʻliqliklar haqida soʻz yuritiladi. Dostonlarda syujet, motiv, obrazlar va shu kabilar orasidagi tipologik oʻxshashliklarni va bogʻliqliklarni qiyosiy tadqiq qilishning ahamiyatiga V.M.Jirmunskiy, E.M.Meletinskiy, X.G.Korogli, K.Dj.Sadikov, M.Joʻrayev va boshqa olimlar eʼtibor qaratganlar. V.M.Jirmunskiy: «Dunyo xalqlarining botirlik dostonlarida tipologik oʻxshashlik koʻp uchrashi, bunday oʻxshashlik qardosh va taqdirdosh xalqlardagina emas, balki bir-biridan uzoq boʻlgan xalqlarning epik meroslarida ham bisyor ekanligini»¹⁵ taʼkidlab oʻtadi. I.Sagʻitov: «...Sharq va Gʻarb xalqlarining epos yaratish ijodiyotida maʼlum ijtimoiy va madaniy rivojlanish holatlaridan kelib chiqqan tarixiy tipologik mushtarakliklar, bir-biriga oʻxshash qator mavzular, motivlar, syujetlar, voqealar uchrab turadi»¹⁶, — deb yozadi. Professor S.Bahadirova: «Qoʻrqut ota kitobi» yozma yodgorligini har bir xalqning hozirgi folklori bilan qiyoslab tadqiq qilish fanda katta yangiliklarning ochilishiga sabab boʻladi. Birinchidan, bu nusxa XV asrning turkiy tildagi eng qadimgi noyob qoʻlyozmasi boʻlganligi uchun ham bebaho. Mazkur yozma yodgorlik bilan hozirgi folklori qiyoslab, oʻrta asrdagi turkiy tilli xalqlarning barchasiga umumiy boʻlgan motivlar, syujetlar mavjudligining guvohi boʻlamiz»¹⁷,— degan fikrlarni bildirish orqali dostonlarni qiyosiy tadqiq qilishning fandagi ahamiyatiga eʼtibor qaratadi.

¹³ Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. — М.: Восточная литература, 1998. — С. 128-129.

¹⁴ Гайсина Ф.Ф. Способы гаданий и предсказаний в башкирском фольклоре // Самарский научный Вестник. — Самара, Т. 11. 2022. - № 3. — С. 224-228. https://snv63.ru/2309-4370/article/view/114904/ru_RU

¹⁵ Жирмунский В.М. Народный героический эпос. — М.-Л., 1962. — С. 435.

¹⁶ Сагитов И. Вопросы сравнительного изучения эпоса // Вестник ККФАН УзССР. — Нукус, 1962. — № 1. — С. 64.

¹⁷ Бахадырова С. «Китаби дедем Қорқыт», «Қоблан», «Едиге» хэм хэзирги әдебият хакқында ойлар. — Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. — Б. 4.

Bobning mazkur bo‘limida yuqorida bildirilgan olimlarning fikrlariga tayanib «Er Ziyvar» dostonining syujet va mazmunidagi jang lavhalari, botirlarning mardlik harakatlari, undagi dasturiy motivlarning turkiy xalqlarning «O‘g‘uznoma», «Qo‘rqut ota kitobi» yodgorligi hamda «Alpomish», «Qirq qiz», «Qo‘blan» va boshqa qoraqalpoq qahramonlik dostonlaridagi syujetlar o‘zaro qiyoslab o‘rganildi. Jumladan, «O‘g‘uznoma» yozma yodgorligining syujet mazmuni O‘g‘uz xoqonning harbiy yurishlari, urushdagi botirligi va jasorati, qavmlarni birlashtirish harakatlari bayon qilinib, xalqni qahramonlikka, vatanparvarlikka, hamjihatlikka undab, tashqi yovlarga qarshi kurashga chorlasa, «Er Ziyvar» dostonining g‘oyasida ham adolatsizlikni qoralash, yovuz bosqinchi xonlarga qarshi kurash, el-xalqni himoya qilish, yurt tinchligi uchun qo‘shinni tashqi yovlarga qarshi boshlab borish, ikki elni birlashtirish, odil podsholik tuzish masalasi ilgari surilib, o‘zaro hamohanglikni tashkil qiladi. Ya’ni qadimgi harbiy-demokratik tartiblarning tasvirlanishi, ikki tomondagi qo‘shinning urushi, harakat va voqeaning badiiylik bilan epik usulda bayon qilinishi har ikki asarda ham bir xil tasvirlanishi quyidagi misollar yordamida aks ettiriladi. Masalan, «O‘g‘uznoma» yodgorligida:

Urıs ta baslandı usı orında,

Oq-jay, qalqan qılısh láshker qolında,

Kóp shayqaslar boldı ońlı solında,

Adamlar júregi hási retke toldı¹⁸, – deb kuylansa, «Er Ziyvar»

dostonida jang maydonidagi urush voqeasi quyidagicha tasvirlanadi:

Eki jaqtıń láshkeri,

Qattı sawash qıladı,

Ziywar menen Er Janay,

Qaytpay ğayrat saladı¹⁹.

Shuningdek, jang maydonidagi shu xil holatlar «Qo‘rqut ota kitobi» yozma yodgorligining «Bayburaning o‘g‘li Bamsi Beyrek» dostoni deb ataladigan 3-jirida «gumbur-gumbur nog‘oralar urildi, o‘qlar otildi, qilichlar to‘qnashdi, bir qiyomat jang bo‘ldi, dala to‘li bosh bo‘ldi»²⁰, deyilsa «Qirq qiz» dostonining Qurbonboy jirov variantida jang maydonidagi kurash shunday tasvirlanadi:

Suwday aǵıp qızıl qan,

Qızdı sawash maydanı,

Kimlerdiń ketip gellesi,

Tap boldı ájel zindanı²¹.

«Alpomish» dostonining O‘giz jirov variantida esa, botirlarning jang maydonidagi kurashi bunday aks ettiriladi:

Birewi ólse qalmaqtın’,

Mıńı tayar boladı,

Uzın qılısh shapireste,

Ólik degen dáste-dáste,

¹⁸ Ж.Хошаниязов аўдармасы // Қарақалпақ қахарманлық дәстанлары – миллий қәдириятлар дереги. – Нөкис: Илим, 2017. – Б. 83.

¹⁹ Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 27-т. Ер Зийўар. – Нөкис: Илим, 2011. – Б. 20.

²⁰ Қоркут ата китабы (Ж.Хошаниязов аўдармасы). – Тошкент: Anorbooks, 2022. – Б. 81.

²¹ Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 9-т. Қырық қыз. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 133.

Qurt oyini qurildi²².

Shu tariqa, bobning mazkur bo'limida «Qo'rqut ota kitobi» yozma yodgorligining «Darsaxaning o'g'li Bug'achxon dostoni» deb ataladigan 1-jir voqealari bilan Er Ziyvarning xalqi uchun kurashib, yovni yengib, dushman qo'ldan xalqini va otasining podsholik martabasini saqlab qolishdagi qahramonligi aniq misollar yordamida o'rganilib tahlil qilindi. Shuningdek, yodgorlikning «Qorachiq cho'pon dostoni» deb ataladigan 2-jiridagi Sho'qli Malik obrazi, uning zolimligi, hokimiyat uchun talashishi, o'z manfaatining g'ami, tinch yashayotgan elga hujum qilish kabi adolatsizligi «Er Ziyvar» dostonidagi qalmoq xoni Taxtapolatning hujum harakatlaridagi o'zaro bog'liqliklari ko'rib chiqildi. «Bayburaning o'g'li Bamsi Beyrek» 3-jirida ham «Er Ziyvar» dostonidagi kabi yiroqdan qiz izlash motivi bilan syujet bayonida ham, «Qanli xo'ja o'g'li Qanturali dostoni» deb nomlanadigan 6-jiridagi Saljon bilan Qanturali orasidagi o'q-yoy otishish musobaqalarida Er Ziyvarning Oqtamoq bilan kurashib g'olib bo'lish voqealaridagi o'qshashliklar taqlil qilindi. «Burlaxotin dostoni» deb nomlanadigan 4-jirida Qozonbekning o'g'li O'razning yurtini tashqi yovdan himoya qilishda o'zini ayamadan, kurashdan tolmay or-nomusni qo'ldan bermay qilgan jasurligi va Er Ziyvarning botirligi ko'rib chiqildi. Ayniqsa, «Er Ziyvar» dostoni syujetidagi tipologik o'xshashliklar qoraqalpoq xalqining qahramonlik dostonlari «Qirq qiz» (Qurbonboy jirov), «Alpomish» (O'giz jirov), «Qo'blan» (Esemurat jirov) va boshqa variantlarining syujet liniyasida uchraydi. Nomi qayd etilgan dostonlar qahramonlarining yurt tinchligi uchun bosqinchilikka qarshi kurashish g'oyasining yorqin ko'zga tashlanishi, shuningdek, «Er Ziyvar» dostonidagi syujetlar qoraqalpoq xalqining «Mastpodsho» (Máspatsha), «Qo'blan» (Qoblan), «Qurbonbek» (Qurbanbek) dostonlaridagi botirlarning elni himoya qilishda olib borgan kurashlari, jang maydonidagi mardlik harakatlari, qiz izlash safarlari, qizni kurashib, yengib olib o'lja qilish voqealari bilan o'zaro o'xshashlik xususiyatlari borligi qiyoslab o'rganildi.

O'rta Osiyo xalqlari qahramonlik dostonlarining aksariyatida, jumladan, «Alpomish», «Qo'blan» dostonlari syujetlarida botirlarning uylanishida kamondan o'q otish, ot choptirish sinovlaridan o'tib, o'ziga qarshi chiqqan barcha kuchlar bilan, ko'pincha devlar bilan kurashib, qizni olib qaytishga erishganligi tasvirlanadi. «Er Ziyvar»da esa botirning uylanishidagi bunday epizodlar tushirib qoldirilib, ertaklik-mifologik motivlarga xos hodisalar uchraydi. Bu hodisalar doston syujet zanjirlarining har xil rivojlanish yo'llarini yaratib, mazmunini boyitib, ko'lamini kengaytirishga imkoniyat beradi. Botirning uylanish safaridagi shu kabi ertaklik epizodlar qoraqalpoq xalqining (Aytbay Baltabayev varianti) «Gul - Sanovar» (Gul - Saniuar) ishqiyarguzasht, o'zbek xalqining (Po'lkan shoir varianti) «Go'ro'g'li» qahramonlik-romanik, (Fozil Yo'ldosh varianti) «Gul-Sanobar» va «Zevarxon» ishqiyarguzasht dostonlaridagi voqealari bilan ohangdoshligini aniqlab, qiyoslab o'rganishga harakat qildik.

II bobning «**Botirning elni himoya qilish motivi**» deb ataladigan ikkinchi faslida qahramonlik dostonlariga xos an'anaviy motivlar haqida so'z yuritiladi.

²² Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 1-т. Алпамыс. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2007. – Б. 65.

Qahramonlik dostonlarining kompozitsiyasi va syujet mazmuni yurtni tashqi yovlardan himoya qilish, erkin, adolatli zamonni barpo qiluvchi botirning epik tarjimayi holini bayon qilish jihatiga qaratiladi. Agar qoraqalpoq qahramonlik dostonlari «Alpomish», «Qo‘blan», «Qirq qiz», «Mastpodsho»ning asosiy syujet zanjirida bosh figura sifatida xalq botirlari tursa, qoraqalpoq xalq dostoni «Er Ziyvar»da ham Er Ziyvar, Hasan xon, Er Janoy kabi xalq botirlarining epik obrazlari turadi. Natijada doston kompozitsiyasining qurilishi, asosiy g‘oyaning yoritilishi va syujet voqeasi bayon qilinib, ijobiy yechim topishi botirlar obraziga bog‘liq bo‘lib, ular obrazida asosiy epik syujet rivojlantiriladi. «Er Ziyvar» dostonida ham butun syujet voqeasi Er Ziyvarning obrazi atrofida bayon qilinadi. Jirovlarning ijodkorlik mahorati shundaki, Er Ziyvarning yakka botirlik obrazini yaratishda, uning kuchi, mardligi qahramonligiga uyg‘unlashib, aqlliligi va yuqori fazilatini, insoniylik qiyofasini teng tasvirlaydi.

Dushpaníndı qıyratıp,
Alayıq namıs arıńdı,
Qádirli ata anaǵa,
Xızmet etiw parızdı,
Bizdey batır balaǵa²³.

«Er Ziyvar» dostonida kurash mavzusining bayon qilinishi masalaning bir tomonini o‘z ichiga olibgina qo‘ymasdan, ikki tomonning, ya’ni do‘stning va dushmanning taqdirini o‘rtaga tashlaydi, shunday qilib kurash adolat bilan adolatsizlikning, do‘st bilan dushman to‘qnashuvining tuguni bo‘ladi. Ushbu tugun atrofida masala yechiladi. «Er Ziyvar» dostonining g‘oyaviy qimmatini botirlarning xalqqa xizmat qilishi bilan belgilanadi. Bu esa dostonidagi qalmoqlarning Xorazmga ikkinchi marta bostirib kirishida elni himoya qilish uchun Oynajamolning botirga aytgan so‘zlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan:

Elińdi uyqıda shapqanda dushpan,
Tulparıń júyrikdur qanatlı qustan,
Írza bolsın qublaǵahım atańda,
Xalqım deseń tezirek atlan márt palwan²⁴.

«Er Ziyvar» dostonida bayon qilingan syujet voqealari, undagi yovlar va bosqinchilikka qarshi botirlarning jasurlik harakatlari, ma’lum bir davrlarda xalqning boshidan kechirgan tarixiy voqealarining ifodasi sifatida badiiy tasvirlanganligi, eng asosiysi, dostonning o‘ziga xos xususiyati jirovlarning syujet tuzish, uni rivojlantirish va yaxlitlikni saqlay bilishi, shu asosda voqeani haqiqiy tasvirlay olishi kabi holatlar matn qurshovidagi misollar yordamida tahlil qilindi.

Ikkinchi bobning «**Qahramonning uylanishi**» deb nomlangan uchinchi faslida botirning uylanish motivining o‘ziga xos xususiyatlari haqida taniqli folklorshunos tadqiqotchilar E.M.Meletinskiy, V.M.Jirmunskiy, X.T.Zarifov, V.Ya.Propp, B.N.Putilov, B.Sarimsoqov, T.Mirzayev, K.Allambergenov, J.Xoshniyazov, K.Palimbetov va boshqalarning tadqiqotlarida bildirilgan fikrlarga tayanildi. E.M.Meletinskiy: «Eposning eski shakllarida botirlik haqidagi

²³ Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 27-т. Ер Зийўар. – Нөкис: Илим, 2011. – Б. 16.

²⁴ О‘sha manba. – Б. 107.

ertaklardagi kabi qahramonning «o‘ziga nasib etgan qizni» unashtirish mavzulari keng tarqalgan (qahramonning poetik tarjimai holida bu zarur bo‘lgan elementlardan biri²⁵, – degan fikrni bildirsa, akademik V.M.Jirmunskiy «Begona yurtlardan kelib tipik xonzodalarga uylanib, podsholikning yarmini egallashi, podsho naslining erkak odamlar orqali emas, ayollar orqali o‘tishi haqidagi ertaklarda matriarxat munosabatlarining bor ekanligi hamda bu qadimgi davrda odat ekanligini, shuningdek, qahramonlik ertaklari uchun patriarxal-urug‘lik jamiyatdagi ekzogamiya sharoitlarida o‘zga urug‘ qavmidan kelin olinishi ko‘pincha, uni olib qochish (qizning xohishi yoki uning erkiga qarshi) bilan bog‘liq bo‘lishi bilan ahamiyatga ega, ya‘ni o‘zga elga bosqinchilik maqsadida safar qilish qahramonlik sha‘niga ega bo‘lishi lozim edi, bular yosh askarning mardligi, topqirligi, jismoniy kuchi haqida ma‘lumot beradi»²⁶, – degan fikr bildirish orqali botirlarning qaylig‘iga erishishidagi haqiqiy erkaklik harakatlari, uning ertangi kuni, kelajakda ham elni himoya qilishda yigitlik burchini o‘tashda ham muhim bo‘lib, o‘zga yurtdan qiz olish – botirning kuchini sinashdagi asosiy belgi ekanligini ham nazarda tutadi. «Er Ziyvar» dostonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda tug‘ilish, ism qo‘yish va boshqa motivlar o‘rin olmaydi, lekin ikki botirning uylanish voqeasi o‘ziga xos jarayon sifatida tasvirlanadi. Doston qahramoni Er Janoyning uylanishida turk-mo‘g‘ul eposlaridagi nikoh qurishning «urushda o‘lja qilib olish» shakliga xos belgilari va epizodlarini uchratamiz. Masalan, Er Ziyvar Taqtapolatning qizi Oqtamoqni ikki el o‘rtasidagi jangda yengib, o‘lja qilib Er Janoyga olib beradi. Bu sifatlar qoraqalpoq qahramonlik dostonlari «Qo‘blan» va «Go‘ro‘g‘li»ning Xirmondali turkumida uchraydi.

